

**MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARNING MAKTAB  
TA'LIMIGA AXLOQIY TAYYORGARLIGINING MEZONI  
CRITERIA FOR MORAL PREPARATION OF PRESCHOOL CHILDREN FOR  
SCHOOL EDUCATION  
КРИТЕРИИ ПРАВСТВЕННОЙ ПОДГОТОВКИ ДОШКОЛЬНЫХ ДЕТЕЙ К  
ШКОЛЬНОМУ ОБРАЗОВАНИЮ**

**Norqo'ziyeva Manzura Abduraxmonovna  
JDPI Maktabgacha ta'lim metodikasi  
kafedrası o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning maktab ta'limiga axloqiy tayyorgarligining mezoni haqida so'z borgan va uslubiy tavsiyalar berilgan

**Kalit so'zlar:** madaniy va tarixiy meros, ma'naviy ehtiyoj, axloqiy tarbiyalash, milliy tarbiya, vatanparvarlik hislarini shakllantirish, bilim olish, ehtiyojini, o'qishga intilish, iroda.

**Аннотация:** В статье рассмотрены критерии нравственной подготовки дошкольников к школьному образованию и даны методические рекомендации.

**Ключевые слова:** культурно-историческое наследие, духовная потребность, нравственное воспитание, национальное воспитание, формирование патриотических чувств, знания, потребности, желание учиться, воля.

**Annotation:** This article discusses the criteria for moral preparation of preschool children for school education and provides methodological recommendations

**Keywords:** cultural and historical heritage, spiritual need, moral education, national education, formation of patriotic feelings, knowledge, needs, desire to study, will.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma'naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash, bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o'qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o'zining fikrini mustakil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlash maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga qo'yilgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur sohani yanada rivojlantirishga

qaratilgan dasturlarda maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini sifatida, bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining bolalar huquqiy savodxonligini shakllantirishdagi o'rni hamda, respublikada ta'lim-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishi ekanligi ta'kidlangan.

Bu kabi vazifalarning irosini ta'minlashda esa maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga axloqiy sifatdan tayyorligi g'oyat muhimdir. Barchamizga ma'lumki, maktabgacha yosh davri 6-7 yoshni o'z ichiga oladi. Bolaning olti- yetti yoshlik davriga kelib ahloqiy xatti-harakat, iroda ahloqiy hissiyotlar va ong rivojida unga yangi ijtimoiy nuqtai-nazarni egallashiga hamda o'zining o'qituvchi va sinfdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini ahloqiy asosda qurishiga imkon beradigan darajada erishida ifodalanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktab ta'limiga ahloqiy irodaviy tayyorlik mazmuni bo'lg'usi o'quvchi tutgan o'rnidan kelib chiquvchi bola shaxsi hamda hulqiga qo'yiladigan talablarga ko'ra aniqlanadi. Bu kabi talablar maktabda o'qishning dastlabki kunlaridanoq o'quvchi oldiga o'quv majburiyatlarini mustaqil va mas'uliyatini qis etgan holda bajarish tartibli va intizomli bo'lish, o'z xatti-harakati va faoliyatini boshqarish, o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'zaro munosabatlarda madaniy hulq qoidalariga rioya qilish, maktab anjomlariga tartibli va extiyotlik bilan munosabatda bo'lishni ko'ndalang qo'yadi. Bu yuksak talablarga olti yoshli bolalarni bajarishga tayyorlash oldindan bolalar bog'chasi va oilada maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar bilan olib boriladigan davomli, maqsadga yo'llangan tarbiyaviy ish jaroyonida amalga oshiriladi.

Axloqiy – irodaviy tayyorlik olti yoshli bola shaxsiy xulq-atvori rivojining muayyan darajasida namayon bo'ladi. Bu munosabatda bolaning maktabgacha tarbiya yoshi davomida rivojlanadigan o'z hulq-atvorini boshqarish qobiliyati: qoidani yoki tarbiyachi talablarini ongli bajarish, birdan asabiylashib ketishga erk bermaslik, qo'yilgan maqsadga erishishda qati'yatni namoyon qilish, kerakli ishni o'ziga tortadigan, amo maqsaddan chalqitadiganiga qarshi o'laroq oxirigacha bajarish ko'nikmasi va shu kabilar e'tiborga loyiqlidir.

Bolani maktabga ahloqiy – irodaviy tayyorlikning qaror topishida, shuningdek, bola shaxsiy xulq-atvoridagi mustaqillik, uyushganlik va intizomlik kabi xususiyatlar ahamiyatlidir. Intelektual tayyorlik bolaning maktabda muvaffiqiyatli o'qib ketishi uchun yagona zamin emas. Bolani maktabga tayyorlash uni o'ziga xos huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan yangi ijtimoiy rol-o'quvchilik rolini qabul qilishga tayyorlikni o'z ichiga oladi. Bolaning maktabga. O'quv faoliyatiga. O'qituvchilarga, o'ziga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladi. Bu davrda bolalar maktabga intilishi yuqoriligi bilan xarakterlanib turadilar. Maktab hayotining tashqi ko'rinishi ularni o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, maktabning asosiy faoliyati – o'qish ham bolani o'ziga jalb qiladigan asosiy kuchlardan hisoblanadi. Bola “xuddi dadasidek o'qishni xoxlaydi” , “o'zi o'qishni o'rganib olib, kitoblarni ukasiga o'qib berishni xoxlaydi”. Bu kabi intelishlar deyyarli har bir bolada yuzaga keladi. O'quvchi bo'lish, kattalar ko'z o'ngida bir pog'ona ko'tarilib, ular e'tiboriiga tushish endi nazarida muhimroq faoliyat o'qish bilan shug'ullanish bola uchun jiddiy faoliyatdir.

Maktabgacha yoshdagi bolalar har tomonlama ya'ni anatomik-fiziologik, ahloqiy-irodaviy, shaxsiy va ijtimoiy psixologik tayyor ,bo'lsalargina u maktab ta'limiga tayyor – bo'lg'usi o'quvchidir.

Xulosa qilib aytganda, bolaning maktabda o'qishga ahloqiy – irodaviy tayyorligi uni maktabgacha davrida ahloqiy – irodaviy rivojlantirishning muayam yakuni sifatida namoyan bo'ladi. U maktab ta'limi nuqtai nazaridan bola shaxsi va xulq-atvorining o'z majmuiga ko'ra bolaning maktab sharoitlariga moslashishi o'z majburiyatlarini mas'uliyatli bajarish, o'qituvchi va o'quvchilarga nisbatan ahloqiy munosabatni shakillantirish uchun zarur zaminini tashkil qiluvchi eng muxim xislatlarni qamrab oladi. Axloqiy – irodaviy tayyorlik bolaning maktabda o'qishga aqliy va jismoniy tayyorligi bilan uzviy aloqadordir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. L.R.Mirjalolova va boshqalar Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar moduli bo'yicha O'quv-uslubiy majmua. T.: 2018 [1/6] 147 bet

2. Mamasoli Jumaboyev “Bolalar adabiyoti va folklori” O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg’armasi nashriyoti T.2006 [1/51] . 214bet
3. Г.И.ХАСАНОВА “Таълим жараёнида дастурлаштирилган ўқитиш технологиясидан фойдаланишнинг афзалликлари” Жиззах: 2020. 420 бет. 223-225б
4. Хасанова, Г. (2021). Олий таълим муассасалари педагогларининг Креатив қобилиятларини ривожлантиришнинг мазмуни. *Academic Research in Educational Sciences*, 2(1), 778-782.
- 5..М.А.Норқўзиева Бўлажак ўқитувчиларнинг касбий барқарорлигини таъминлашда буюқсиймоларнинг роли Самарқанд 2020
- 5 Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.
- 6.Norquziyeva, M. (2020). БЎЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИНГ КАСБГА МУНОСАБАТИНИ ЎЗГАРТИРИШ-КАСБИЙ БАРҚАРОРЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ ГАРОВИ. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 7.Abdurahmonovna, N. M. (2021). Pedagogical and Psychological Aspects of Professional Sustainability of Future Teachers.
- 8.Abduraxmonovna, N. M. (2020). ENSURING PROFESSIONAL STABILITY OF FUTURE TEACHERS IN PEDAGOGICAL ACTIVITY. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol, 8(6).
- 9.Norquziyeva, M. (2021). XALQ OG’ZAKI IJODI ASOSIDA O’QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH: XALQ OG’ZAKI IJODI ASOSIDA O’QUVCHILARNI MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYALASH. *Журнал дошкольного образования*, 2(2).
- 10Norquziyeva, M. (2020). The role of educational technology in shaping the professional stability of students. Архив Научных Публикаций JSPI.
- 11.Abdurakhmonovna, N. M. (2020). Methodology of giving professional knowledge to future teachers. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1378-1383.

